



BUXORO DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASINING MUZEY TURIZMI RIVOJIDAGI O'RNI

Sultonova Nigina

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimi

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tel:(90)513-14-18

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17378039>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-oktabr 2025 yil

Ma'qullandi: 11-oktabr 2025 yil

Nashr qilindi: 17-oktabr 2025 yil

KEYWORDS

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi, muzeylararo hamkorlik, madaniy meros, xalqaro anjumanlar, muzeysunoslik, ilmiy faoliyat, ko'rgazma, restavratsiya, raqamlashtirish, turizm, O'zbekiston muzeylari..

ABSTRACT

Ushbu maqolada zamonaviy O'zbekiston muzeylari, xususan, Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi faoliyatining so'nggi yillardagi taraqqiyoti, xalqaro hamkorlik aloqalari va ilmiy-amaliy faoliyati yoritilgan. Tadqiqotda muzey ishini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, madaniy merosni asrash va targ'ib etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, 2023–2025-yillarda muzey ilmiy xodimlarining xalqaro anjumanlardagi faol ishtiroki, Buxoro muzeyining xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan uchrashuvlar, qo'shma ko'rgazmalar va ilmiy loyihalar misolida yurtimiz muzeysunoslik sohasi rivojining dolzarb jihatlari ko'rsatib berilgan.

Zamonaviy O'zbekiston muzeylari faoliyatida ko'p yillar davomida shakllangan mavjud an'analarni ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasiga asoslangan yangi tamoyillar bilan boyitish ustuvor vazifalardan sanaladi. Endilikda mamlakatda muzeylarning roli va funksiyasi oshib borar ekan, tashrifchilar bilan kommunikatsiya o'rnatishning yangi shakllari topilmoqda, ekskursiyalarni tashkillashtirishda zamonaviy vositalardan foydalanish texnologiyasi takomillashmoqda. 1922 yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi¹ muzeylar tizimida ko'plab ko'rgazmalar tashkil etib kelmoqda. Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi mamlakatimizning qadimiy madaniyat markazlaridan biri bo'lib, muzey fondi tarkiban nihoyatda boy va xilma-xildir. Unda arab yozuvida bitilgan qo'lyozma va litografik asarlar, xattotlik namunalari, qadimiy yozuv asboblari saqlanib, nafaqat fondlarda, balki doimiy ekspozitsiyalar va ko'rgazmalarda ham namoyish etilmoqda. Bu ekspozitsiyalar mahalliy va xorijiy turistlar uchun katta qiziqish uyg'otmoqda. Qolaversa, muzeyning ijtimoiy-tarbiyaviy roli va ahamiyati ham kengayib bormoqda. Muzeylar mamlakatlararo hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish, madaniy aloqalarni mustahkamlash, qolaversa, umuminsoniy mavzularga dunyo hamjamiyati e'tiborini qaratishga yo'naltirilgan².

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi faoliyatida xalqaro hamkorlik va muzeylararo aloqalar ham alohida ahamiyat berilayotgan va keng imkoniyatlar doirasida ish olib

¹ Ниязова М.И. Из истории деятельности Бухарского музея//Из истории культурного наследия Бухара № 2. - С 38, Церемония открытия в Бухаре первого музея// Бухоро ахбори 112-сон. 1922 йил 23 ноябрь.

² Всемирная Федерация друзей музеев (ВФДМ): краткий исторический обзор // Museum, 1993. №2. – С. 4-7.

borilayotgan yo'nalish hisoblanadi. Bugungu kunda Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi nafaqat mamlakatimiz, balki xorijiy davlatlardagi muzeylar bilan ham samarali hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan muassasalardan biridir. Muzeyda jahon amaliyotidagi ilg'or tajribalarni o'zlashtirish, muzey faoliyatini qo'llab-quvvatlash, jamoatchilikni muzey ishlariga jalb etish, shuningdek, madaniy merosni saqlash va targ'ib etish yo'lida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Birgina 2024–2025-yillarda muzey-qo'riqxona tomonidan qator muhim uchrashuv va hamkorlik tashabbuslari amalga oshirilgani fikrimizga misol bo'la oladi. Jumladan, 2024-yilning 2-fevral kuni Madaniy meros agentligi direktor o'rinbosari T.Qo'ziyevning Buxoroga tashrifi doirasida Buxoro davlat universiteti faollar zalida muzey-qo'riqxona, madaniy meros boshqarmasi, Badiiy ekspertiza bo'limi, viloyat hokimligi huzuridagi Turizm departamenti hamda BDU vakillari ishtirokida uchrashuv o'tkazildi. Tadbir davomida muzey sohasida fidokorona faoliyat yuritayotgan bir guruh xodimlar faxriy yorliqlar bilan taqdirlandilar.

Shu yilning 15-fevral kuni muzey-qo'riqxona bosh direktori B.Nasimov Eron Islom Respublikasining Hamadon shahriga viloyat delegatsiyasi tarkibida tashrif buyurdi. Uchrashuv chog'ida buyuk alloma Abu Ali ibn Sino nomidagi muzey bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, Buxoro muzeyi tomonidan Hamadonda Ibn Sino hayoti va ilmiy merosiga bag'ishlangan ko'rgazma tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishildi. 18–19-mart kunlari esa Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida bir qator nufuzli muzeylar bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Xususan, "Gatcina" davlat muzey-qo'riqxonasi bilan o'tkazilgan muloqotda "Imperiya Sharqqa qaraydi" nomli ko'rgazma doirasida Buxoro amiri tomonidan sovg'a qilingan tarixiy ashyolar namoyish etildi. Shu bilan birga, "Sarskoe Selo" bog'-muzeyi va Petropavlovsk qal'asida joylashgan shahar tarixi muzeyi vakillari bilan ham uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvlar doirasida madaniy merosni o'rganish, ko'rgazma almashinuvi va restavratsiya tajribalarini o'zaro almashish masalalari muhokama qilindi. Mazkur uchrashuv va hamkorlik tashabbuslari Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasining xalqaro nufuzini oshirish, muzey fondlarini boyitish, shuningdek, O'zbekistonning boy madaniy merosini dunyo miqyosida targ'ib etish yo'lida muhim amaliy qadam bo'lib xizmat qilmoqda³.

So'nggi yillarda Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi xalqaro miqyosdagi muzey va madaniy meros muassasalari bilan o'zaro tajriba almashishni faol yo'lga qo'yimoqda. 2025-yilning yanvar–may oylarida o'tkazilgan uchrashuvlar, xorijiy delegatsiyalar tashrifi va qo'shma tashabbuslar bu yo'nalishdagi faoliyatning amaliy samarasini yanada oshirdi.

28-yanvar kuni Koreya Respublikasi Madaniy meros agentligining bir guruh mutaxassislari Buxoro "Ark" muzeyiga tashrif buyurib, muzey bo'ylab sayohat qilishdi va bosh direktor hamda ilmiy xodimlar bilan uchrashuv o'tkazdilar. Uchrashuv davomida Buxoro muzeylari faoliyati, ekspozitsiyalarni tashkil etish jarayoni, eksponatlarni asrash, shuningdek, davlat elektron katalogi orqali jamoatchilikka taqdim etilayotgan ilmiy ma'lumotlar xususida batafsil fikr almashildi. Muzokaralarda tarixiy binolarni va madaniy meros obyektlarini turli favqulodda holatlardan himoya qilish, restavratsiya va konservatsiya ishlari bo'yicha xalqaro tajribalar muhokama qilindi. Koreyalik mutaxassislar o'z navbatida, muzey eksponatlarini saqlash va ularni zamonaviy texnologiyalar asosida himoya qilish borasida amaliy yordam ko'rsatishga tayyor ekanliklarini bildirdilar. Tashrif so'ngida mehmonlarga muzey-qo'riqxona

³ Muzey-qo'riqxonaning 2024-yil hisoboti

faoliyatini aks ettiruvchi kitoblar, bukletlar, suratli va uch tildagi xaritalardan iborat esdalik sovg'alari topshirildi.

3-fevral kuni esa Fransiya tashrif buyurgan Parij arxitektura uyushmasi direktori Borina Andriu boshchiligidagi delegatsiya qadimiy Buxoro me'moriy yodgorliklarini o'rganish bilan bir qatorda, Buxoro tasviriy san'at muzeyida ham bo'ldilar. Mehmonlar bu yerda saqlanayotgan san'at asarlari bilan yaqindan tanishdilar, san'atshunos olimlar bilan fikr almashdilar hamda muzey ekskursiyasidan katta taassurot bilan qaytdilar.

30-aprel kuni Ibn Sino memorial muzeyi filialiga Indoneziyadan kelgan mehmonlar tashrif buyurib, buyuk alloma merosiga oid eksponatlar bilan tanishdilar va o'z iliq taassurotlarini muzeyning xotira daftarida qoldirdilar.

2-may kuni esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-261-son qarorining 5-ilovasida belgilangan "Muzeylar sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish" vazifalarini amalga oshirish doirasida Rossiyaning "Gatchina" va "Tsaritsino" davlat muzey-qo'riqxonalarini xodimlari Buxoro muzeyiga tashrif buyurishdi. Uchrashuv davomida ikki tomonlama ilmiy aloqalarni mustahkamlash, qo'shma ko'rgazmalar tashkil etish, kadrlar malakasini oshirish hamda raqamlashtirish jarayonlarida hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilindi. Mazkur tashriflar va muloqotlar Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi faoliyatining xalqaro nufuzini yanada oshirish bilan birga, O'zbekiston madaniy merosini jahon miqyosida keng targ'ib etish, muzey ishini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish va soha mutaxassislarining malakasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimlari respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muntazam ishtirok etib, o'z tadqiqotlari, ilmiy maqolalari va taqdimotlari bilan faol qatnashib kelmoqdalar. Ularning ilmiy faoliyati muzey fondlari, madaniy merosni asrash, milliy san'at va hunarmandchilik an'alarini tadqiq etish, shuningdek, tarixiy manbalarni o'rganish yo'nalishlariga qaratilgan.

2023-2025-yillar kesimida Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimlari ilmiy-amaliy anjumanlarda faol ishtirok etib kelmoqda. 2023-yilning fevral oyida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi va o'rta asrlarda yaratilgan yozma yodgorliklari manbashunosligi" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muzey ilmiy xodimi N.Sultonova "Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasida Alisher Navoiy asarlari" mavzusidagi maqolasi bilan ishtirok etdi.

Mart oyida "Markaziy Osiyo davlatlarida millatlararo totuvlikni ta'minlash" nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plamida O'.Ravshanovning "Buxoro eroniylarining husayniyaxonalar tarixi" mavzusidagi maqolasi chop etildi. Shu oyda o'tkazilgan "Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va merosini o'rganish: zamonaviy tadqiqotlar va yondashuvlar" xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida esa N. Sultonova "Bobur shaxsining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati" nomli maqolasi bilan qatnashdi.

15-may kuni Fond va Sektor bo'limlari hamda Tasviriy san'at muzeyi xodimlari hamkorligida 18-may - Xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan "Ajdodlar merosini asrab-avaylash – muqaddas burchimizdir" nomli ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi. Tadbirda viloyat Bojxona boshqarmasi tomonidan muzey fondiga beg'araz taqdim etilgan ashyolar asosida yangi ko'rgazma tashkil etildi.

18-may kuni “Moddiy-ma’naviy meros – umumbashariy qadriyatlar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida O‘. Ravshanov “Zirabod o‘lkashunoslik muzeyi – mahalliy eroniylar tarixini o‘rganish manbasi” mavzusidagi maqolasi bilan ishtirok etdi.

13-iyun kuni o‘tkazilgan “Muzeysunoslik XXI asrda: tadqiqotlar, an‘analar va innovatsiyalar” xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida bir necha muzey xodimlari o‘z ilmiy ishlari bilan qatnashdilar va “Buxoro zardo‘zlik san‘ati milliy hunarmandchiligimizning bo‘g‘inidir”, “Ahmad Donishning Buxorodagi qo‘lyozmalari”, “Buxoro muzeyi mustaqillik yillarida” nomli maqolalari bilan ishtirok etdilar.

15-iyun kuni Buxoro davlat universitetining “Arxeologiya va Buxoro tarixi” kafedrası tomonidan tashkil etilgan “Buxoro tarixi masalalari (eng qadimiy zamonlardan hozirgacha)” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida ham muzey xodimlari faol qatnashdilar. Ilmiy xodimlarning “Matolarning qo‘llanilishida ijtimoiylikning ahamiyati”, “Buxoro amiriga yahudiylarning in‘omi”, “Buxoro muzeyi arxeologik kolleksiyasining shakllanishi” mavzularidagi maqolalari nasr etildi⁴.

31-avgust kuni esa O‘zbekiston tarixini o‘rganishda GIS (geoinformatsion tizimlar) usullaridan foydalanishga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy tadqiqotlar namoyishi Yaponiyaning Osiyo xalqaro universitetida bo‘lib o‘tdi. Tadbirida Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasidan S.Nosirova ham ishtirok etib, o‘z ilmiy kuzatuvlari va tajribalari bilan o‘rtoqlashdi.

20-sentabr. 19-22-sentabr kunlari O‘zbekiston Milliy kutubxonasida Koreya Respublikasi Madaniy meros boshqarmasi va Xalqaro hujjatli meros markazi YUNESKOning Jahon xotirasi kotibiyati, YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi va Markaziy Osiyo tadqiqotlari Xalqaro instituti bilan hamkorlikda YUNESKOning “Jahon xotirasi” Xalqaro mintaqaviy seminar-treningi bo‘ldi. Maqsad – soha mutaxassislariga hujjatli merosni aniqlash, saqlash, o‘rganish, keng targ‘ib qilishda malakalarini oshirish. Unda Buxoro muzeyidan Hujjatlar fondi xodimi F.Kazakova ishtirok etdi.

Mazkur ilmiy faoliyatlar natijasida muzey ilmiy xodimlari nafaqat respublika, balki xalqaro miqyosda ham Buxoro madaniy merosi, muzeysunoslik, tarix, san‘atshunoslik va etnografiya yo‘nalishlarida o‘z ilmiy hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Ularning tadqiqotlari muzey fondlarining boy tarixiy, badiiy va ma’naviy ahamiyatini yanada chuqur ochib berishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ниязова М.И. Из истории деятельности Бухарского музея//Из истории культурного наследия Бухара № 2. - С 38, Церемония открытия в Бухаре первого музея// Бухоро ахбори 112-сон. 1922 йил 23 ноябрь.
2. Всемирная Федерация друзей музеев (ВФДМ): краткий исторический обзор // Museum, 1993. №2. – С. 4-7.
3. Мuzey-qo‘riqxonaning 2023-yil hisoboti
4. Мuzey-qo‘riqxonaning 2024-yil hisoboti

⁴ Мuzey-qo‘riqxonaning 2023-yil hisoboti